



## DAVLAT FUQAROLIK XIZMATCHILARI MA’NAVIY FAOLLIGINI OSHIRISH –BARQAROR TARAQQIYOTGA OLIB BORUVCHI YO‘L SIFATIDA.

**Xurshid Ochilov Abdurashidovich**  
Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti

**Annotatsiya.** Maqolada Davlat fuqarolik xizmatida faoliyat olib boruvchilarning ma’naviy faoelligini tashkil etishni to‘g‘ri ta’minlab berish, xalqda davlat organlari va davlat xizmatiga nisbatan ishonch va hurmatga sazovor bo‘lishi hamda davlat boshqaruvidagi “barqarorlik”ni ta’minlab beruvchi omil sifatida yoritib berilgan.

**Kalit so‘zlar:** “Ma’rifatli jamiyat qurish”, Ma’naviy faollilik, “xalqqa xizmat”, barqaror taraqqiyot, shaxs, jamiyat, inson.

**Аннотация:** Анонтиация: В статье подчеркивается важность обеспечения организованности нравственной деятельности работающих на государственной службе, как фактора, обеспечивающего общественное доверие и уважение к государственным органам и государственной службе, а также «стабильность» в государственном управлении.

**Ключевые слова:** «Построение просвещенного общества», Духовная деятельность, «служение народу», устойчивое развитие, личность, общество, человек.

**Abstract:** The article emphasizes the importance of ensuring the organization of the moral activities of those working in the public service, as a factor that ensures public trust and respect for state bodies and public service, as well as "stability" in public administration.

**Key words:** "Building an enlightened society", Spiritual activity, "service to the people", sustainable development, personality, society, person.

Dunyo shiddat bilan o‘zgarib bormoqda. Yer yuzidagi mayjud barcha davlatlar o‘zining ijtimoiy va siyosiy mavqeini jahon sahnasida belgilab olish uchun turli xil rivojlarish dasturlari ishlab chiqib shu dasturlar asosida taraqqiyotning yangi bosqichiga chiqish arafasida. Hozirgi vaqtida O‘zbekistonda “Ma’rifatli jamiyat qurish” maqsadida keng ko‘lamli islohotlar uzoq va yaqin hududlarda birdek ishlar amalga oshirilmoqda.

Bu yo‘lda biz davom etish chog‘ida marifatli jamiyatni shakllantirish yo‘lida demokratik tamoyillar uning asosiy qadriyatlaridan biri hisoblanadi. Bu jaryonda jamiyat a’zolari ongini eski mafkuralar va mustamlakalik davridagi g‘oyalardan tozalash qarashlardagi buzulishlarni oldini olish, yetishib kelayotgan avlod ya’ni yosh kadrlarni va Yangi O‘zbekiston g‘oyasi asosida kamol toptirish, davlat rivoji va taraqqiyot yo‘lini ularning saviyasi va malakasidan tashqari ularning mafkuraviy immuniteti mustahkamligi ta’minalash lozim bo‘ladi. Chunki, Jamiyatda aniq belgilangan mafkuraviy munosabatlar mavjud bo‘lmagan. Har bir shaxs o‘ziga xos qadriyatlar tizimi mavjud bo‘lgan sharoitda aholi o‘rtasidagi ma’naviy-ahloqiy munosabatlari davlat va fuqaro o‘rtasidagi o‘zaro ishonch va hamkorlikni belgilaydi. Shu o‘rinda Sh.Mirziyoevning “Davlat organlari – xalqqa xizmat qilishning samarali vositasi” [1.72] sifatida e’tirof etadilar va “Demokratik huquqiy davlat va ochiq fuqarolik jamiyati barpo etishning eng muhim sharti bo‘lgan xalqning xohish-irodasini, uning orzu-intilish va manfaatlarini har tomonlama har tomonlama hisobga olgan holda, davlat hokimiyati irodalari faoliyatini nazarda tutadi. O‘z navbatida, bu – xalq bilan muloqot demokratik taraqqiyot va inson manfaatlarini ta’minalash omiliga aylanganidan dalolat beradi”. [2.73] Bundan ko‘rinib turibdiki, davlatda xizmat ko‘rsatuvchi barcha organ va idoralar faoliyat turidan qat’iy nazar “xalqqa xizmat” masalasi ustun turishiga guvoh bo‘lamiz. Agar davlat fuqarolik xizmatida faoliyat olib boruvchilarning ma’naviy faolligini tashkil etishni to‘g‘ri ta’minlab bera olsak, xalqda davlat organlari va davlat xizmatiga nisbatan ishonch va hurmatga sazovor bo‘lib, davlat boshqaruvidagi “barqarorlik”ni ta’minlab beruvchi omil sifatida xizmat qiladi. Yuqorida fuqarolarga sifatli xizmat ko‘rsatish va ularni muammolarini o‘z vaqtida va joyida hal qilish maqsadida davlat fuqarolarga xizmat faoliyatini amalga oshiradi va uni ta’minlab beruvchi shaxslar davlat xizmatchisi hisoblanadi. Tadqiqotlar davomida bizning ilmiy faoliyatimizning uzviy bog‘liq bo‘lgan “davlat xizmati” tushunchasiga huquqiy jihatdan to‘xtalib o‘tish lozim. Davlat xizmati tushunchasi haqida huquqga oid adabiyotlarda Davlat xizmati – insonlarning jamiyatga foydali eng muhim va zarur kasbiy faoliyatlaridan biri sifatida tarif beriladi.

Jamiyatga foydali malakali kasb sifatida davlat xizmati, egalik qiluvchiga maqomining ijtimoiy muhim ahamiyatli parametrlarini ham belgilab beradi. Faoliyatning xizmat xarakteri mehnat mohiyatini anglatadi. Ushbu faoliyat turi davlat hokimiyati organlari tizimida qat’iy biriktirilgan maqom ko‘rsatmalari bilan tatbiq etiladi.

Davlat xizmati maqomi esa – bu uning “davlat xizmatchilari faoliyatining mohiyati va asosida shakllanadigan hamda jamiyat fikri bo‘yicha yuqori baho oladigan jamiyatning ijtimoiy-kasbiy

tizimdagи munosabatdosh o‘rni” [3.83-92]. sifatida tasniflanadi. Ushbu jarayonda faoliyat olib boruvchi shaxslar davlat xizmatchilari to‘g‘risida to‘htalib o‘tadigan bo‘lsak, davlat xizmatchisi – nafaqat malakali boshqaruvchi, balki vakolati doirasiga davlat vazifalarini amalga oshirish va davlat boshqaruv organlarining vakolatlarining sifatli ijrosini ta’minlovchi mansabdor shaxs sanaladi.

Davlat xizmatchisi – bu oddiy xodim emas, u davlat topshirig‘i va manfaatlari bo‘yicha uning nomidan harakat qiluvchi shaxsdir. U fuqarolar manfaatlari yo‘lida davlat organlari tizimida davlat hokimiyati vakolatlarini bajaradigan, xalq ifoda etib, ijtimoiy masalalarni hal etadigan maxsus ijtimoiy fuqarolar birligining vakili hisoblanadi. Davlat xizmatchilari maqomining farqi, masalan, maqsadi foyda olish bo‘lgan tadbirkorlardan assosiy farqi ana shunda.

Davlat xizmatchisi maqomi – ko‘p qirrali va ko‘p darajali hodisa. Shuning uchun uning tasniflanishni taqazo etadi.

Davlat xizmatchisi maqomining tizimi o‘ziga quyidagilarni jamlaydi:

- ✓ shaxsiy,
- ✓ fuqarolik,
- ✓ ijtimoiy,
- ✓ huquqiy,
- ✓ xizmatga oid,
- ✓ lavozim maqomlari shular qatoridandir.

Davlat xizmatchisining shaxsiy maqomi har bir xizmatchining jismoniy, aqliy va ijtimoiy-psixologik shaxsiy xarakteristikalariga asoslanadideya tasniflanadi. Bundan tashqari har bir davlat xizmatchisi fuqarolik maqomiga ega bo‘lib, davlat fuqarosi hisoblanadi. Xizmatga oid maqom esa ularga qo‘srimcha huquqlar, majburiyatlar, cheklov va taqiqlar yuklaydi. Lavozim maqomi davlat xizmatchisining vaqtincha egallab turgan mansabi bilan tartibga solinadi. U qancha yuqori bo‘lsa, mansabdoning lavozim maqomi shuncha yuqori bo‘ladi. Huquqiy maqom – bu Konstitutsiya va qonunlar bilan o‘rnatalgan, insonning huquq va majburiyatları, shuningdek, davlat organlari va mansabdor shaxslar vakolatining tan olinishi bilan kafolatlanadi va davlat tomonidan himoyalanadi.

Davlat xizmatchilarining “huquqiy maqomi” tushunchasiga davlat xizmati tizimida ularning o‘rnini belgilaydigan davlat xizmatchilarining huquqiy darajasining eng muhim institutsional xarakteristikalarini kiradi. Davlat xizmatchilari huquqiy maqomini tashkil etgan elementlarga quyidagilarni kiritish mumkin:

- davlat xizmatchisining huquqi;
- asosiy majburiyatları;
- davlat xizmati bilan bog‘liq cheklov;
- davlat xizmatchisi uchun kafolat;
- davlat xizmatchisining javobgarligi kabi elementlardan iborat.

Davlat xizmatchisi tushunchasi xususida, ilmiy adabiyotlarda turli fikrlarni uchratish mumkin. Bunday fikrlarning xilma-xilligi asosan davlat xizmatchisi tomonidan *turli ijtimoiy funksiyalar*ning amalga oshirilishi bilan bog‘liq. Bu tabiiy holat bo‘lib, davlat xizmatchisi tushunchasini belgilashda aniq bir mezondan kelib chiqishni istisno etadi.

Davlat xizmatchilari – huquqning individual sub’ektlaridan iborat bo‘lgan ijtimoiy guruh bo‘lib, ma’lum bir haq evaziga davlat organlarining vazifa va funksiyalarini amalga oshiradilar. Har bir tashkil etiladigan tashkilot uning normal faoliyat ko‘rsatishi uchun maxsus tayyorlangan xizmatchilardan iborat bo‘lgan ma’lum bir personalga ega bo‘lishi lozim. Tashkilotlarning turiga qarab huquq ob’ektlarining quyidagi xizmatchilarini: davlat (davlat organlari), mahalliy organlar, jamoat birlashmalari, nodavlat, tijorat, notijorat, diniy, xususiy, xalqaro tashkilotlarning xizmatchilarini ko‘rsatib o‘tish mumkin.

Insonlar ijtimoiy foydali mehnat bilan mashg‘ulbo‘lishi, jamiyatning normal faoliyat ko‘rsatishini ta’minlash maqsadida turli funksiyalarini amalga oshirishlari, moddiy boyliklar yaratishlari ya’ni tovarlar ishlab chiqarish, xizmatlar ko‘rsatish, tarbiyaviy va ta’lim funksiyalarini amalga oshiradilar, davlat-hokimiyat harakatlari va huquqni muhofaza qilish funksiyalarini bajaradilar, turli xildagi qarorlarni qabul qiladilar.

Xizmatchilar to‘g‘risida batafsil tushuncha hosil qilish maqsadida, ularning faoliyatini jamiyatning turli tashkilotlarida (korxona, muassasalarida) band bo‘lgan boshqa shaxslar faoliyati bilan taqqoslash kerak: u xizmatchilar turli tashkilotlarda (davlat, mahalliy, nodavlat, notijorat, jamoat, diniy) ma’lum bir lavozimlarni egallaydilar; u ularning faoliyati aqliy xususiyatga ega, ya’ni ular bevosita moddiy boyliklarni yaratmaydilar. Lekin xizmatchilar moddiy ishlab chiqarish sohasida ham faoliyat yuritishi mumkin, masalan, tashkiliy, ishlab chiqarish jarayonini texnologik ta’minlash, loyihalarni tayyorlash, marketing, tadqiqot faoliyati va boshqalar; u xizmatchilar hokimiyat faoliyatini (tashkillashtirish, farmoyish berish, rahbarlik, nazorat) amalga oshiradilar hamda tegishli tashkiliy-farmoyish berish va ma’muriy-xo‘jalik vakolatlariga ega bo‘ladi; ular davlat va jamoat majburlov choralarini qo‘llashlari mumkin.

Har qanday tashkilotdagi xizmatchilar asosan boshqaruv funksiyalarini amalga oshiradilar; u xizmatchilar o‘zlarining vakolatlarini, funksiyalarini, qoida bo‘yicha, ma’lum bir haq evaziga amalga oshiradilar. Xizmatchilar o‘rtasida davlat va mahalliy organlarda faoliyat ko‘rsatuvchi xizmatchilarni alohida ko‘rsatib o‘tish lozim. Davlat va mahalliy organlarining xizmatchilari davlat va mahalliy organlarning manfaatlarini ko‘zlab, ularning nomidan harakat qiladilar hamda davlat va mahalliy ma’muriyatning vakillari bo‘lib hisoblanadilar. Davlat va mahalliy organlarning xizmatchilari davlat va mahalliy organlar oldida turgan vazifa va funksiyalarini amalga oshiradilar. Davlat xizmatchisi davlat lavozimini egallagan, pul mukofoti evaziga mazkur davlat organining funksiyalarini amalga oshiradigan shaxsdir.

Davlat xizmatchilarining aksariyati ijro-farmoyish berish (tashkillashtirish) vakolatlarini va ijtimoiy-madaniy faoliyatni amalga oshirish bilan shug‘ullanadilar. Faqatgina ayrim davlat xizmatchilari maxsus davlat mansablarini egallaydilar, masalan, odil sudlovnvi va prokuror nazoratini ya’ni, huquqni muhofaza qilish faoliyatini amalga oshiradilar. Ko‘pgina yuridik adabiyotlarda Davlat xizmatchisiga quyidagicha ta’rif beriladi: Davlat xizmatchisi maqomida faoliyat yurituvchi shaxslar – bu davlat ma’muriyati apparatida bevosita yoki bilvosita ma’lum bir haq evaziga doimiy yoki vaqtincha xizmat majburiyatlarini amalga oshiruvchi shaxs hisoblanadi. Bunda “xizmatchi tomonidan xizmat majburiyatlarining bajarilishi” asosiy tushuncha sifatida namoyon bo‘ladi. Bundan ko‘rinib turibdiki, biz ishonch bildirgan vakolatli organlarda faoliyatni tashkil qilish, ishlarni to‘g‘ri yo‘lga qo‘yish hamda boshqaruv faoliyatini samaradorligini to‘g‘ri tashkil qilish haqida Buyuk sarkarda Amir Temur o‘zining «Temur tuzuklari»da shunday deydi «Raiyat ahvoldan ogoh bo‘ldim. Ulug‘larini ota qatorida, kichiklarini farzand o‘rnida ko‘rdim. Har yerning tabiatni, har el-yurt va shaharning rasmu odatlari va mizojsidan voqif bo‘lib turdim. Har bir yurt va shahar aholisining ulug‘lari bilan do‘s tutindim. Ularning mizojlari va tabiatiga to‘g‘ri kelgan, o‘zлari tilagan odamlarini ularga hokim qilib tayinladim.» deya boshqaruv aytilgan bo‘lsa Birinchi Prezident I.Karimov “Davlat qurilishi muammolari haqida gapirar ekanmiz, shuni yaxshi anglab olishimiz lozim: davlatning kuch qudrati boshqaruvning barcha vakolatlarini o‘z zimmasiga olishi hamda davlat idoralarining hukm va tayziq o‘tkazuvchi organ sifatidagi vazifalarini kuchaytirish bilan belgilanmaydi.

Davlatning kuch qudrati – avvalo, demokratik institutlarning mustakil faoliyat ko‘rsatishi uchun shart-sharoit yaratish, fukarolar va jamiyatning barcha siyosiy, ijtimoiy saloxiyatini ruyobga chikarish, tadbirdorlik va iktisodiy tashabbuslar erkinligi uchun zarur imkoniyatlarni tashkil etib berish qobiliyati bilan ulchanadi” [4.334-335] degan fikrlarini guvohi bo‘lamiz. Bundan ko‘rinib turibdiki tarixdan to hozirgi kunda ham xalqning xohish irodasini inobatga olgan holda davlat boshqaruvi faoliyati tashkil etilishini ko‘rshimiz mumkin bo‘ladi. Yuqorida keltirib o‘tilgan tariflardan kelib chiqib, davlat boshqaruv hokimiyati o‘zining mohiyatiga ko‘ra huquqiy hodisa sifatida ifodalansa, biz qurmoqchi bo‘lgan “Ma’rifatli jamiyat a’zolari”da jamiyatda faoliyat olib boruvchi barcha davlat fuqarolik xizmati xodimlaridan tortib biz ishonch bildirgan vakolatli shaxslarning bosh maqsad sifatida qonun ustuvorligi va adolatli boshqaruv asosida xodimlarning ma’naviy faolligini oshirish masalasiga alohida e’tibor berish, zamon talablaridan kelib chiqib faoliyati tashkil etish orqali biz ko‘zlagan maqsadga erishish mumkin. Shu o‘rinda biz, jamiyat to‘g‘risida to‘htalib o‘tar ekanmiz: Jamiyat – nihoyatda bir murakkab tizim ekanligini hisobga olishmiz kerak. Sababi, uning har bir tarkibiy qismi ko‘plab tuzilmalardan tashkil topadi. Unda mavjud har bir qismlar umumiyl bitta qonuniyatga bo‘ysinsa-da, o‘zining ichki, qonun qoidalariga ham ega hisoblanadi. Jamiyatda mavjud tizimlarni ba’zi bir qismlarini tezda o‘zgartish yoki isloh qilish imkoniyati mavjud bo‘lsa, ba’zilarini tezda o‘zgartirishni hech qanday iloji yo‘q. Misol tariqasida biror bir davlatning siyosiy tizimini inqilobiy yo‘l bilan qo‘lga kiritib, qisqa vaqt

ichida o‘zgartirsa bo‘ladi, lekin jamiyatning ma’naviy hayoti, milliy o‘zligini va uning asrlar davomida mafkuraga aylanib ulgurgan g‘oyalarini o‘zgartish uchun ancha vaqt talab etadi. Xuddi shunday 70 yillik mustamlakachilik davrida shakllangan va kamol topgan kadrlar qarashlarini o‘zgartirish juda qiyin. Bunga sarflanagdigan vaqtni kelajak yetishib kelayotgan yosh avlodni kamol toptirishga sarflansa nisbatan ancha samara beradi degan xulosaga kelamiz.

### **Adabiyotlar:**

1. Yangi O‘zbekiston taraqqiyoti strategiyasi. Sh.Mirziyoyev. T-O‘zbekiston. [1.72, 2.73].
2. Государственная служба: теория и организация. 1998.. [3. 83-92].
3. Karimov I.A. Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot - parovard maqsadimiz. t.8. - T.: O‘zbekiston, 2000. [4.334-335]
4. “Temur tuzuklari”. Toshkent-2013. “O‘zbekiston”